

OILADA SHAXS SHAKLLANISHIDA ADABIYOT FANING AHAMIYATI VA GENDER STEREOTIPLARINING IJTIMOIIY ONGGA TA’SIRI

ADPI “Pedagogika va Psixologiya” kafedrası v.b. dotsenti,
(PhD) M.D.Abdulmadjidova

ADPI O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
2 bosqich 205 guruh talabasi Z.R.Sotvoldiyeva

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19413511>

Annotatsiy: Mazkur maqolada farzand tarbiyasida ota-onalarning badiiy va ma’naviy adabiyotga tayangan holda yetuk shaxsni shakllantirishdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, gender stereotiplarining bolalar ongiga, ijtimoiy tasavvur va qadriyatlar tizimiga ko‘rsatadigan ta’siri ilmiy-psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Oila muhiti, milliy meros va adabiy manbalar orqali farzandni ma’naviy barkamol qilib tarbiyalash zarurati asoslab berilgan..

Kalit so‘zlar: farzand tarbiyasi, oila psixologiyasi, adabiyot, gender stereotipi, ijtimoiy ong, yetuk shaxs, ma’naviy qadriyat.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль родителей в формировании зрелой личности ребёнка на основе художественной и духовной литературы. Также анализируется влияние гендерных стереотипов на сознание детей и общественное восприятие с научно-психологической точки зрения. Обосновывается необходимость воспитания духовно развитой личности через семейную среду, национальное наследие и литературные источники.

Ключевые слова: воспитание ребёнка, семейная психология, литература, гендерные стереотипы, общественное сознание, зрелая личность, духовные ценности

Abstract: This article examines the role of parents in shaping a mature personality in children through literary and spiritual sources. It also analyzes the impact of gender stereotypes on children’s consciousness and social perception from a psychological perspective. The necessity of raising spiritually developed individuals through family environment, national heritage, and literature is substantiated.

Keywords: child upbringing, family psychology, literature, gender stereotypes, social consciousness, mature personality, spiritual values

Jamiyat taraqqiyoti avvalo oiladan boshlanadi. Oila — shaxs kamolotining birinchi va eng muhim maskanidir. Farzandning dunyoqarashi, axloqiy mezonlari, jamiyatga munosabati aynan oilada shakllanadi. Ota-onaning ma’naviy saviyasi, tarbiya uslubi va qadriyatlarga munosabati farzandning kelajakdagi shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bu boradan Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning “...birinchi navbatda, e’tiborni Yangi O‘zbekiston uchun eng katta investitsiya bo‘lgan ta’limni qo‘llab-quvvatlashga qaratamiz. “Najot – ta’limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi...”[1.] degan fikrlari yorqin misol bo‘la oladi. Zero ta’lim tarbiyasiz amalga oshmaydi.

Ta’lim va tarbiyaga sharq mutafakkirlari, xususan, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy va Abdulla Avloniy asarlarida alohida e’tibor qaratilgan. Ularning fikricha, tarbiya — jamiyat kelajagini belgilovchi eng muhim omildir.

Adabiyot inson qalbini tarbiyalaydi, tafakkurini boyitadi va axloqiy me’yorlarni shakllantiradi. Farzandning yoshligidan badiiy asarlar bilan tanishishi uning tasavvur doirasini kengaytiradi, empatiya tuyg‘usini rivojlantiradi va ijtimoiy muhitni to‘g‘ri anglashiga yordam

beradi. Masalan, Qutadg’u bilig asari[2.]da insoniy fazilatlar, adolat, ilm va axloq masalalari chuqur yoritilgan. Turkiy Guliston[3.] yoxud axloq asarida esa yosh avlodni ma’rifat va odob-axloq asosida tarbiyalash g’oyasi ilgari suriladi. Ota-onalar adabiyotga tayangan holda, milliy-ma’naviy qadriyatlar asosida farzandni tarbiyalasa, u yetuk va mas’uliyatli shaxs bo’lib kamol topadi. Gender stereotiplaridan xoli, tenglikka asoslangan tarbiya esa sog’lom ijtimoiy ongni shakllantirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, oila — shaxs kamolotining birinchi maktabi, adabiyot esa uning ma’naviy ustozidir. Ota-onalar farzandlariga ana shunday asarlar mazmunini tushuntirib, ularni hayotiy misollar bilan bog’lab bera olsalar, farzand ongida mustahkam ma’naviy poydevor shakllanadi. Gender stereotiplari — jamiyatda erkak va ayolga nisbatan shakllangan an’anaviy tasavvurlar majmuidir. Masalan, “o’g’il bola yig’lamaydi”, “qiz bola itoatkor bo’lishi kerak” kabi qarashlar bolalarning tabiiy qobiliyatlarini cheklashi mumkin. Psixologik tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, qat’iy stereotiplar bolaning o’ziga bo’lgan ishonchini pasaytiradi, ijtimoiy rollarni erkin tanlashiga to’sqinlik qiladi. Natijada shaxsning individual rivojlanish jarayoni cheklanadi. Shu bois ota-onalar farzand tarbiyasida gender tenglik tamoyillariga amal qilishi, har bir bolaning qobiliyati va qiziqishini hurmat qilishi zarur. Yetuk shaxs — mustaqil fikrlay oladigan, axloqiy mezonlarga ega, jamiyat oldidagi mas’uliyatini his qiladigan insondir. Bunday shaxsni shakllantirishda quyidagi omillar muhim: Ota-onalar farzand bilan birga kitob mutolaa qilsa, o’qilgan asarni muhokama qilsa, qahramonlarning xatti-harakatlariga baho berishni o’rgatsa, bolada mustaqil va tanqidiy fikrlash shakllanadi. Bu esa uning turli zararli axborotlarga ko’r-ko’rona ishonmasligiga, har bir ma’lumotni tahlil qila olishiga yordam beradi. Demak, adabiyotga tayangan tarbiya farzandning ma’naviy-axloqiy immunitetini mustahkamlaydi.

- Oiladagi sog’lom psixologik muhit
- Ota-onaning shaxsiy namuna ko’rsatishi
- Milliy va badiiy adabiyotdan foydalanish
- Gender stereotiplardan xoli tarbiya
- Mustaqil fikrlashni rag’batlantirish

Agar oila farzandni adolat, hurmat, mehr va tenglik ruhida tarbiyalasa, jamiyatda ijtimoiy ong ham sog’lom shakllanadi. Aslida esa har bir farzand avvalo shaxsdir. Uning qobiliyati, qiziqishi va intilishlari jinsiy stereotiplardan ustun turishi kerak. Ota-onaning vazifasi – farzandni qolipga solish emas, balki uning ichki imkoniyatlarini kashf etish va qo’llab-quvvatlashdir. Teng hurmat, adolatli munosabat va ochiq muloqot asosida tarbiya topgan bola o’zini qadrlashni o’rganadi, boshqalarga ham hurmat bilan qaraydi. Shunday qilib, adabiyotga tayangan ongli tarbiya va gender stereotiplaridan xoli yondashuv bir-biri bilan uzviy bog’liqdir. Adabiyot bolaga insoniylik mezonlarini o’rgatsa, stereotiplardan xoli muhit uning shaxs sifatida erkin rivojlanishiga imkon beradi. Natijada jamiyatga ma’naviy barkamol, mustaqil fikrlovchi va mas’uliyatli shaxs voyaga yetadi.

Xulosa o’rnida ta’kidlash joizki, adabiyotga tayangan ongli tarbiya va gender tenglik tamoyillariga asoslangan yondashuv jamiyatning barqaror taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi. Bunday tarbiya natijasida nafaqat bilimli, balki ma’naviy yetuk, o’z fikriga ega, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo’ladigan shaxslar voyaga yetadi. Aynan shunday avlod jamiyatning intellektual salohiyatini oshiradi, ijtimoiy totuvlikni mustahkamlaydi va milliy qadriyatlarni zamonaviy tafakkur bilan uyg’unlashtira oladi.

Tavsiyalar.

1. Farzand tarbiyasida ota onalar bolalarini bolalikdan kitobga mehr uyg’otib kitob mutolalalarida o’zlari ibrat namunasi bo’la olishi.
2. Ularga turli yoshlariga xos ertak va maqollar, masallar o’qib berish yoki nazoratlari ostida qiziqish uyg’otib doimiy o’qishni tarbiyalash.

3. Farzand tarbiyasida Gender stereotiplardan xoli tarbiya usulidan foydalanish bolani mustaqil fikrlashni rag‘batlantirish.

Demak, farzand tarbiyasida ota-onaning ma’naviy saviyasi, adabiyotga e’tibori va stereotiplardan xoli adolatli yondashuvi kelajak avlod sifatini belgilovchi asosiy omillardandir. Yetuk shaxs oilada shakllanadi, barkamol jamiyat esa ana shunday shaxslar orqali bunyod etiladi.

Adabiyotlar ro‘yhati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 Y.PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Farmoni.

2. Yusuf Xos Xojib “Qutadg‘u bilig” - Toshkent “Fan” 1971 y.

3. Abdurashidova, G. (2024). O‘QUVCHILARDA DESTRUKTIV XULQ KO‘RINISHLARINING PAYDO BO‘LISHI VA UNING OLDINI OLISH CHORALARI. *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, 2(9), 651-659.

2. Abdurashidova, G. (2024, May). O‘smirlarda destruktiv xulq ko‘rishlari shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. In CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD (Vol. 1, No. 4, pp. 5-7).

3. Gavhar, A. (2025). IJTIMOIIY TA‘SIR VA MANIPULYATSIYA: PSIXOLOGIK VA IJTIMOIIY TAHLIL. *The latest news and research in education*, 2(1), 21-27.

4. Gavhar, A. (2025). LIDERLIK VA UNING TURLARI: IJTIMOIIY PSIXOLOGIYADA MUHIM TUSHUNCHA. *The latest news and research in education*, 2(1), 14-20.

5. Gavhar, A. (2025). ALTRUIZM VA YORDAM KO‘RSATISH: IJTIMOIIY PSIXOLOGIYANING MUHIM TUSHUNCHALARI. *The latest news and research in education*, 2(1), 1-7.

6. Gavhar, A. (2025). KONFORMIZM VA IJTIMOIIY BOSIM: IJTIMOIIY PSIXOLOGIYANING MARKAZIY TUSHUNCHALARI. *The latest news and research in education*, 2(1), 56-62.

7. Gavhar, A. (2025). O‘ZARO TA‘SIR VA GURUH DINAMIKASI: JAMIYATDAGI PSIXOLOGIK JARAYONLAR. *The latest news and research in education*, 2(1), 42-48.

8. Gavhar, A. (2025). YOSH DAVRIDA QAROR QABUL QILISH VA MAS‘ULIYAT. *The latest news and research in education*, 2(1), 35-41.

9. Gavhar, A. (2025). GURUHNING SHAXSGA TA‘SIRI: IJTIMOIIY PSIXOLOGIYA ASOSLARI. *The latest news and research in education*, 2(1), 8-13

10. Gavhar, A. (2025). STEREOTIPLAR VA DISKRIMINATSIYA: IJTIMOIIY PSIXOLOGIK TUSHUNCHALAR. *The latest news and research in education*, 2(1), 49